

“LISON UT-TAYR” ASARIDA QO‘LLANGAN PAREMALARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Mo‘tabar Xo‘jamova

Navoiy davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti
fakulteti 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

“Lison ut-tayr” dostoni bugungi kunda asosan adabiyotshunoslik jihatdan ko‘p tahlil qilingan. Ko‘pincha tasavvufiy jihatlari ochib berilgan. Ushbu maqolamizda “Lison ut-tayr” dostoni tilshunoslik jihatdan tahlil qilindi. Dostondagi paremlar semantik, jihatdan o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: parema, semantika, maqol, matal, aforizm.

Paremiologiya so‘zi grekcha paroimia (hikmat) va logos (fan) so‘zlaridan olingan bo‘lib, ma‘lum bir tildagi maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar sistemasini o‘rganadigan fanidir.

Demak, paremiologiya koinot qonuniyatlarini kuzatish, turmush tajribalariga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarni ifodalovchi, xalqning jamiyatga munosabati, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashtirgan, avloddan avlodga og‘zaki formada ko‘chib yuruvchi, ixcham va soda, qisqa va mazmundor mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni – paremlarni o‘rganadi.

Paremiologiyada quyma fikrni ifodalovchi eng mayda birlik parema deb ataladi. Paremiologiya tildagi maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni ikki planda o‘rganadi.

1. Paremlar avloddan avlodga faqat og‘zaki holdagina o‘tib kelganligi, xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lganligi uchun adabiyotshunoslik fanining o‘rganish obyektidir, chunki bu hikmatli iboralarning ko‘pchiligi ko‘proq she‘riy formaga o‘xshaydi va ularda o‘xshatish (istiora, tashbeh, metafora), taqqoslash (anteteza), parallelizm, anafora, qofiyalash, evfonik vositalar (alliteratsiya, assonans), kinoya, piching, kesatiq kabi badiiy tasvir vositalari qo‘llangan bo‘ladi.

2. Paremlar so‘zlardan tuzilib, ma‘lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo‘lgani uchun tilshunoslikning ham o‘rganish obyektidir, chunki ular so‘zlardan hosil

bo'lishiga ko'ra oddiy gaplarga o'xshasa ham, mazmuni strukturasi, intonatsiyasi va boshqa grammatik xususiyatlari jihatidan o'ziga xosliklarga ega.¹

Maqol va iboralar olami turli soha mutaxassisleri hisoblangan olimlar–tilshunoslar, adabiyotshunoslar, paremiologlar, folklorshunoslar, etnograflarning tadqiqotlar olib borishlari uchun “hosildor maydon” hisoblanadi. Bu tabiiy hol, chunki maqol shaklan ixcham, sodda bo'lishiga qaramay, turli tadqiqot nuqtayi nazarlaridan ko'rib chiqilishi mumkin. Maqollar semantik va struktur jihatdan to'la tugallangan matn sifatida tilshunoslikning til haqidagi ancha navqiron sohasi bo'lgan matn lingvistikasining ham diqqatini o'ziga jalb etmoqda. Bir til, hatto o'zaro yaqin bo'lgan va umuman bir-biriga qardosh bo'lmagan tillardagi turli maqollar yagona mantiqiy turga tegishli bo'lishi va bir xil alomatni ko'rsatishi mumkin. Shu bois ular mantiqiy semantika va semiotikaga bevosita tegishli bo'ladi.²

Maqol, matal, aforizm xarakteridagi paremalarni semantik xususiyatiga ko'ra klassifikatsiya qilishda ulardagi ma'noning qanday ifodalanishi – ko'chma ma'noga ega bo'lish-bo'lmasligi asos qilib olinadi. Bu xususiyatiga ko'ra o'zbek tilidagi paremalarni quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Faqat ko'chma ma'noda qo'llanadigan paremalar.
2. Ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda qo'llanadigan paremalar.
3. Faqat o'z ma'nosida qo'llanadigan paremalar.

“Lison ut-tayr” dostonining muqaddimaviy boblarida ham paremalar qo'llangan bo'lib, ularga alohida to'xtalib o'tamiz va semantik jihatdan tahlil qilamiz.

"Ko'zgu ravshanroq necha qilsa zuhur,

Zohir o'lg'ay aks onda bequsur".

(Ko'zgu qanchalik ravshan bo'lsa, aks ham shunchalik benuqson bo'ladi).³

"Sen bu ko'zguni ko'lgil deb xayol qil",- deydi Hudhud: "Unda o'sha jamol o'z aksini ko'rsatadi". Qasrni inson tanasi, undagi ko'zguni ko'ngil deb ta'riflaydi muallif. Bu ko'zguda shoh husniga nazar tashlash lozimligini uqtiradi. Buning uchun, avvalo, ko'zguga jilo berish kerak. Paremani semantik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, to'lig'icha ko'chma ma'noga ega.

Dostondagi hajmi eng katta hikoyat Shayx San'on haqidagi hikoyat hisoblanadi. Tarso qiz iymonga kelib, Iso da'vati bilan Shayx ortidan yo'lga chiqadi. Bundan xabar topgan Shayx ortga qaytganida qiz yo'lda behush yotgan edi. Qiz ko'zlarini ochgach Shayxdan jabr-u zulmlari uchun kechirim so'raydi:

"Dedi:"Ey taqvoshiori dinpanoh,

Qaysi til birla bo'loyin uzrxoh.

¹ H.Berdiyev, R.Rasulov. “O'zbek tilining paremiologik lug'ati”.-T, “O'qituvchi”. 1984 6-bet

² Даль В.И. Пословицы русского народа. -М.:1984,-С.37.

³ A.Navoiy. Lison ut-tayr. Nasriy bayoni www.ziyouz.com kutubxonasi 32-bet

Tosh otar tifli laimi shum baxt,
Soya solur boshig‘a oliy daraxt.
Bosh chekib gulbundin yuz ming no‘gi xor,
Gul ochib har xordin abri bahor.
Garchi jurmum haddan ortiq poyondin fuzun,
Lutf-u ehsoning sening ondin fuzun".¹ [42,119-bet].

Qiz Shayxga: "Sendan qaysi til bilan kechirim so‘ray olaman? Badbaxt bebosh bolalar daraxtga tosh otishadi, oliy daraxt ularga soya solib turaveradi. Agar gul butasida yuz ming tikan bosh ko‘tarsa, har bir tikandan bahor bulutlar tufayli gul ochadi. Garchi gunohim haddan tashqari ko‘p bo‘lsa-da, lekin sening lutf-u ehsoning undan ham ortiqroq". Ushbu parema ham ko‘chma ma‘noga ega. O‘z ma‘nosiga o‘girsak, fikr umuman uzoqlashadi, kelib chiqadigan xulosa mutlaqo boshqa bo‘lib qoladi. Bu yerdagi qo‘llangan paremani qo‘llashdan asosiy maqsad ham ma‘no nozikligini saqlab qolishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. A.Navoiy. MAT yigirma tomlik XII tom. Lison ut-tayr. Fan nashriyoti, -T,1996.
2. A.Navoiy. Lison ut-tayr. Nasriy bayoni www.ziyouz.com kutubxonasi
3. H.Berdiyorov, R.Rasulov. "O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati".-T, "O‘qituvchi". 1984
4. Даль В.И. Пословицы русского народа. -М.:1984

¹ A.Navoiy. MAT yigirma tomlik XII tom. Lison ut-tayr. Fan nashriyoti, -T,1996.119-bet